

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**ERKABOYEV OYBEK MUXAMMADJONOVICH**

**O'SMIRLARNI ARMIYA SAFIDA XIZMAT QILISHGA TAYYORLASH  
BOSQICHIDA JISMONIY TARBIYA VA CHAQIRUVGA QADAR  
BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK INTEGRATSIYASI**

**13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg'ulotlari, sog'lomlashtirish va adaptiv  
jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Chirchiq-2024**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
pedagogical sciences**

**Erkaboyev Oybek Muxammadjonovich**

О'smirlarni armiya safida xizmat qilishga tayyorlash bosqichida jismoniy tarbiya va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik integratsiyasi.....3

**Эркабоев Ойбек Мухаммаджонович**

Интеграция физического воспитания и начальной допризывной подготовки юношей на этапе к службе в армии.....31

**Erkaboev Oybek Mukhammadjonovich**

Integration of physical education and initial training before the call-up at the stage of preparing teenagers to serve in the army.....61

**Эълон қилинган ишлар рўйхати**

Список опубликованных работ  
List of published works.....65

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**ERKABOYEV OYBEK MUXAMMADJONOVICH**

**O'SMIRLARNI ARMIYA SAFIDA XIZMAT QILISHGA TAYYORLASH  
BOSQICHIDA JISMONIY TARBIYA VA CHAQIRUVGA QADAR  
BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK INTEGRATSIYASI**

**13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg'ulotlari, sog'lomlashtirish va adaptiv  
jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Chirchiq-2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.Phd/Ped7988 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasining (www.uzdjtsu.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Dadabayev Odiljon Jalolidinovich**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Kochkarov Atabek Axmatvevich**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

**Yarashev Komil Dexkanovich**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19- uy. Tel.: (0-370)717-17 79,717-27-27, faks.: (0-370) 717-17-76, veb-sayt: www.uzdjtsu.uz, e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz. O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti B-bino, 2-qavat Ilmiy kengash majlislar zali).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19- uy. Tel.: (0-370)-717-17-79, 717-27-27, faks:(0-370) 717-17-76.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatilgan.

(2024-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi)

**F.A.Kerimov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

**L.Z. Xolmurodov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.b.f.d. (PhD), dotsent

**J.M.Ishtayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, p.f.d.(DSc), dotsent

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda globallashuv davrida har bir davlatlar o'z o'rnini keng miqyosda barchaga tanitish maqsadida siyosiy, ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy, sport sohalarida olib borilayotgan islohotlarni amalga oshirish hamda zamon talablariga moslashish bo'yicha ko'plab chora-tadbirlar olib bormoqda. Shu jumladan, yosh avlodni barkamol etib tarbiyalash negizida ularni vatan himoyasiga har tomonlama harbiy-texnik va jismoniy jihatdan tayyorlab borish birinchi darajali vazifaga aylanmoqda. Bugungi kunda yoshlarni jismoniy tayyorgarligini yanada takomillashtirish hamda jismonan sog'lom etib tarbiyalash dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Jahon miqiyosida, o'smir o'g'il bolalarni kelgusida Qurolli kuchlar safida xizmatga tayyorlash bosqichida jismoniy, texnik-taktik va psixologik tayyorgarlik darajasini takomillashtirish bo'yicha ko'plab izlanishlar olib borilmoqda. Bu o'z navbatida, yuqori sinf o'quvchilarini harbiy xizmatga tayyorlashning samaradorligi, erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda, jismoniy tarbiya va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fan dasturlari o'rtasida uzviy bog'liqlikni yuzaga keltirish zaruriyati borligi aniqlandi. Bugungi kunda harbiy-amaliy harakat ko'nikmalarini o'zlashtira olmagan aksariyat bitiruvchilarni jismoniy tayyorgarlik darajasi pastligi, sog'lom shaxslar uchun ixtiyoriy va maxsus ishlab chiqilgan test sinov talablariga javob bera olmasligi, harbiy-sport test me'yorlarini bajarishga yetarli darajada tayyor emasligi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Hozirgi kunda maktablarda harbiy-sport maydonlarini yetishmasligi, ularning davlat talabi standartlariga mos kelmasligi holatlari chaqiriqqa qadar boshlang'ich tayyorgarlik sifatini oshirishga, yuqori sinf o'quvchilarining zamonaviy talablarga mos ravishda harbiy xizmatga moslashuvchanligini yaxshilashga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun yangi usullarini izlab topishni taqozo etmoqda.

Respublikamizda oxirgi yillarda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish to'g'risida ko'plab farmon, qaror va qonunlar ishlab chiqilmoqda. "O'smirlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda armiya xizmati uchun kadrlar zahirasini shakllantirish tizimini takomillashtirish"<sup>1</sup> vazifasi belgilab berilgan. Ma'lumki mustaqillik yillaridan boshlab, mamlakatimizning mudofaa qudratini mustahkamlash, o'quvchi-yoshlarni harbiy xizmatga samarali tayyorlash va ularning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish bo'yicha tizimli ravishda chora-tadbirlar olib borilmoqda. Bu borada amalga oshirilgan ishlar yuqori sinf o'quvchilarining jismoniy va harbiy tayyorgarliklari bo'yicha maxsus sifatlarini rivojlantirish, armiya safida xizmat qilishga samarali tayyorlashning ilmiy asoslarini yaratish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Qurolli kuchlar safiga xizmatga chaqiriladigan yoshlarning asosiy qismini umumta'lim maktablarining bitiruvchilari tashkil qilganligi sababli, ta'limning ushbu tizimidagi chaqiriqqacha tayyorgarlik masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 3-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zahirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" PQ-344-son Qarori

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan PF-60-son “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 24-yanvardagi PF-2924-son “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari va 2022-yil 3-noyabrdagi PQ-414-son “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 3-iyundagi PQ-3031-son “O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, hamda sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” bilan bog‘liq ustuvor yo‘nalish doirasida amalga oshirilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Respublikamiz olimlari I.A.Koshbaxtiyev, R.M.Matkarimov, Sh.X.Xankeldiyev, N.N.Azizxodjayeva K.K.Jabborov, D.R.Norkulov, A.T.Xasanov, F.A.Kerimov, S.R.Uraimov, E.J.Nurinbetovalar tomonidan o‘quvchi yoshlarning jismoniy tayorgarligini oshirish, o‘qitish va armiya safida xizmat qilishga tayyorlash bosqichida jismoniy tarbiyaga innovatsion uslublarni takomillashtirish va joriy qilish bo‘yicha dissertatsiya ishlari bajarilgan<sup>2</sup>.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan L.P.Matveyev, N.E.Kachanov, V.V.Demochkin, A.V.Pachev, B.P.Tsplenkov, A.V.Naydin, L.A.Pashenko, YE.A.Melnikovalar tomonidan ta‘lim tizimida malakali mutaxassislarni tayyorlash muammosi yetarlicha keng o‘rganilgan<sup>3</sup>.

A.Benhaddad, D.Bouix, S.Khaled, V.Chomitz, M.Slining, R.McGowan, S.Mitchell, G.Dawson, K.Hacker, K.Cooper, D.Everett, J.Kloster, M.Meredich,

---

<sup>2</sup> Кошбахтиев И.А. Маткаримов Р.М. Научно-педагогические основы совершенствования физического воспитания студентов: Автореф.дис...докт. пед. наук. -Т.- 1993. – С. 42-44.; Ханкельдиев Ш.Х. и др. Возможности повышения физической подготовленности молодежи, проживающих в условиях жаркого климата. Андижан. - Учебное пособие. - 1998. - С.44-46.; Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. (Учебное пособие для магистратуры всех специальностей) Ташкент. – 2003. - С. 87-89.; Жабборов К.К., Норкулов Д.Р. Спорт ўйинлари ҳакамликнинг назарий асослари. -Фарғона. -2016. –С. 49-51.; Хасанов.А.Т. Педагогическая технология профессионально-прикладной физической подготовки студентов факультетов допризывного военного образования. Автореф. дис. док. философ. [PhD] по пед. наук. Чирчик 2018.56 с.; Керимов Ф.А. Спорта илмий тадқиқотлар. Дарслик.Т.: ИТА-PRESS. 2018.-348 б.; Ураимов С.Р. Харбий-техник лицейлари укучиларининг амалий жисмоний тайергарлигини педагогик хусусиятлари. Автореф. дисс...докт. философии (PhD) по пед. наук. - Т.- 2019. – С. 27-30.; Нурибетова Э.Ж. Социально-психологические особенности динамики профессионального становления сотрудников органов внутренних дел. дис. док философии по психол. наук. Ташкент-2020.-155 с.

<sup>3</sup> Матвеев Л.П. Физкультурное образование: проблемы и перспективы развития - Москва: РГАФК. 1996. - 37 с.; Качанов Н.Е. Формирование знаний и умений у курсантов военно-учебных заведений инженерного профиля по организации самостоятельной физической тренировки: Автореф. дис...канд. пед. наук. - СПб.: ВИФК. 1998. - 26 с.; Демочкин В.В. Физическая подготовка курсантовавтомобильных вузов в процессе военно-профессионального обучения: Автореф. дис...канд. пед. наук. - СПб.: ВИФК. 1999.-26 с.; Пачев А.В. Управление физической подготовкой слушателей учебных заведений МВД РФ на основе применения компьютерных технологий: Автореф. дис... канд. пед. наук. - МАЙКОП.: ЛГУ. 1999. - 24 с.; Цыпленков Б.П. Двигательная активность, здоровье и работоспособность студентов. Л.- ЛГПИ, - 1999. – 171 с.; Найдин А.В. Решение специальных задач на практических занятиях по ППФП в Академии МВД Республики Беларусь. Материалы международной электронной научно-практической конференции. 26 июня. Иркутск. 2008.- С.180-182.; Пашенко Л.А., Мелникова Е.А. Теория и методика физического воспитания и спорта. Москва: Физкультура и спорт, 2021. - 288 с.

M.Rathbone, K.Read, D.Mitchell, B.Davis, R.Lopezlar kabi xorijiy mamlakatlar olimlarning mavjud ilmiy adabiyotlarini tahlil qilish ma'lum darajada muammoga tuzatishlar kiritish va jismoniy tayyorgarlik hamda chaqiriqqacha harbiy tayyorgarlikning yaqindan o'zaro integratsiyasini shakllantirish muammosi bo'yicha maqsadga yo'naltirilgan pedagogik tadqiqotlar o'tkazish zaruratini aniqlashga imkonini berdi<sup>4</sup>.

**Dissertatsiya tadqiqotning bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy tadqiqod muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya mavzusi Farg'ona davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari strategiyasi va istiqbolli rejasiga muvofiq U-23-024 "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash boshqichida jismoniy qobiliyatlari, jismoniy sifatlarini rivojlantirish usullari" mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** umumta'lim maktablari yuqori sinf o'quvchilarini armiya safida xizmat qilishga tayyorlash bosqichida jismoniy tayyorgarligini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

yuqori sinf o'quvchilari uchun jismoniy tarbiya va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik dasturlarini paralellogram tabaqalashtirish va tahlil qilish;

yuqori sinf o'quvchilari uchun jismoniy tarbiya va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik uzliksizligini ta'minlash maqsadida fanlar dasturlarini uyg'unlashtirgan holda jismoniy mashqlar kompleksini ishlab chiqish;

umumta'lim maktablari yuqori sinf o'quvchilari uchun jismoniy tarbiya va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanlari integratsiyasi asosida ishlab chiqilgan dastur samaradorligini eksperimental asoslash;

umumta'lim maktablari yuqori sinf o'quvchilarini armiya safida xizmat qilishga tayyorlashning fanlararo integratsiya qiluvchi modelini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning ob'yekti** sifatida umumta'lim maktablari yuqori sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiya va chaqiriqqacha boshlang'ich tayyorgarlik mashg'ulotlari jarayoni olingan.

**Tadqiqotning predmetini** yuqori sinf o'quvchilarini armiya safida xizmat qilishga tayyorlash bosqichida kasbiy-amaliy, texnik-taktik va jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish usullarini zamonaviy uslublar asosida shakllantirishdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda ilmiy va ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish, so'rovnomalar, pedagogik kuzatuv, nazorat sinovlari, pedagogik testlash, pedagogik tajriba, matematik statistika usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

---

<sup>4</sup> A.Benhaddad.A., Bouix.D., Khaled.S., Early Hemorheologic aspects of overstraining in elite athletes Clin. Hemorheol and Microcirc. - 1999. V 20. - P.1 17-125.; Chomitz.V., Slining.M., McGowan.R., Mitchell.S., Dawson.G., Hacker.K. Is there a relationship between physical fitness and academic achievement? Positive results from public school children in the northeastern United States Journal of School Health.- 2008.-79(1).-P.30-37.; Cooper K., Everett.D., Kloster.J., Meredith M.D., Rathbone M., Read.K. Preface: Texas statewide assessment of youth fitness Research Quarterly for Exercise and Sport. -2010.-81pp.; Debby Mitchell, Barbara Davis, Raim Lopez "Teaching Fundamental Gymnastics Skills" 2022. - P. 199-220.

yuqori sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiya va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik dasturini takomillashtirish uchun maxsus mashqlarni barcha komponentlarni gormonik tarzda qo'shib olib borishga qaratilgan "KK+JT" (kuchli va kuchsiz jismoniy tayyorgarligini) paralellogram tabaqalashtirish hisobiga armiya safiga tayyorlash imkoniyatlari oshirilgan;

o'smirlarning akseleratsiya (o'smirlarning o'sish va jismoniy rivojlanishini tezlashish) jarayoni umumta'lim maktablari yuqori sinf o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligini oshirishga qaratilgan (50/50) avtamat maketi va protivagaz bilan baland-past joylarda yugurishga qaratilgan yaqinlashtiruvchi ixtisoslashgan tezkorlikni talab etuvchi estafeta mashqlarini ko'plab muskul apparatlarini ishlatish orqali absolyut intensivligini barqaror o'zaro birlashtirib qo'llash hisobiga ularning jismoniy yuklamalar optimallashtirilgan;

o'smirlarning mentorlik (o'quvchilarni jismoniy salohiyatini maksimal darajada oshirish, ularga yo'l-yo'riq ko'rsatish va motivatsiya berish) qobiliyatlarini rivojlanish imkoniyatlarini oshirish uchun jismoniy tarbiya va chaqiruvga qadar boshlang'ich fanlarini (M+3) integrativ ma'lumotlarda majmuaviy vazifalar berish orqali tez o'zlashtirish va umumiy tayyorgarlik orientatsiyasini mentorlik qobiliyati ta'minlovchi integrativalangan mashg'ulotlarni rejalashtirish hisobiga harbiy-jismoniy tayyorgarlik darajasi yaxshilangan;

yuqori sinf o'quvchilarini armiya safida xizmat qilishga tayyorlashda jismoniy tarbiya va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanlari o'rtasida o'zaro integratsiya qiluvchi jismoniy tayyorgarlikni oshirishga qaratilgan integratsiyalashgan modeli (o'smirlarni armiyaga tayyorlashda) yetakchi fazilatlarni rivojlantirishga imkon beradigan innovatsion kombayn usulida to'lqinsimon qo'llash hisobiga jismoniy sifatlari takomillashtirilgan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

chaqiruvga qadar yoshdagi yuqori sinf o'quvchilarining aksariyat qismida jismoniy tayyorgarlik darajasining yaxshi emasligi aniqlangan bo'lib, u ko'pchilik harbiy kasblarni o'zlashtirish paytida inson organizmiga qo'yiladigan minimal talablarga mos kelmaydi, shu sababli umumiy o'rta ta'lim maktabida o'qish davrida harbiy xizmat qilishga majmuaviy tayyorgarlik ko'rish, jismoniy tarbiya va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik darslariga qo'yilgan talablarni bajarish zaruriyati belgilab berilgan;

yuqori sinf o'quvchilarini harbiy xizmatga tayyorlash bosqichida jismoniy tayyorgarlik dinamikasi CHQBN-2021 mashqlari orqali aniqlangan;

Qurolli kuchlar tomonidan qo'yiladigan talablarni bajarish maqsadida yuqori sinf o'quvchilarining jismoniy sifatlarni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Olingan pedagogik tajriba natijalarining ishonchliligi, adekvatligi tadqiqot maqsadlari, mashg'ulotlar hajmi va uning representativligi, olingan ma'lumotlarning kompyuter texnikasi yordamida qayta ishlab chiqilganligi, tajriba davomida statistik ishonchli o'zgarish aniqlanganligi, tahlil natijalari mamlakatimiz va xorijiy olimlarning tajribaviy ma'lumotlari bilan taqqoslanganligi, taqdim etilgan xulosalar va amaliy



tavsiyalarning ishonchligi, ularning ilmiy asoslanganligi hamda olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotda jismoniy tarbiya va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanining nazariy va uslubiy asoslarini o'zaro bog'liqligini mashg'ulotlarda qo'llash, jismoniy tarbiya va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanlarini integrativ mashg'ulot dasturi orqali o'smirlarning jismoniy tayyorgarligi me'yorlarini baholash mezonlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotlar natijasida umumiy o'rta ta'lim maktablarida jismoniy tarbiya va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanlarini optimallashtirish orqali o'smirlarni jismoniy rivojlanish ko'rsatgichlarini oshirish orqali innovatsion texnologiyalarni qo'llash imkoniyati kengaytirilgan.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Umumta'lim maktablari yuqori sinf o'quvchilarini armiya safida xizmat qilishga tayyorlash bosqichida jismoniy tayyorgarligini oshirish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqodlar davomida olingan ilmiy natijalar asosida:

umumta'lim maktablari yuqori sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiya va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik dasturini takomillashtirish uchun maxsus mashqlarni "KK+JT" (kuchli va kuchsiz jismoniy tayyorgarligini) parallelogram tabaqalashtirish mashg'ulotlarida integratsiyalangan holda qo'llashni Farg'ona shahar 3,4,6,10-sonli umumta'lim maktablarining o'quv-mashg'ulot jarayoniga tadbiiq etilgan va "Yengil atletika va uni o'qitish metodikasi" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 25-avgustdagi 391-sonli buyrug'iga asosan 300237 raqamli guvohnoma) Natijada, o'quvchilar jismoniy sifatlarining rivojlantirish darajasi 11,5% ga yaxshilangan.

o'smirlarning akseleratsiya (o'smirlarning o'sish va jismoniy rivojlanishini tezlashish) jarayoni umumta'lim maktablari yuqori sinf o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligini oshirishga qaratilgan (50/50) avtamat maketi va protivagaz bilan baland-past joylarda yugurishga qaratilgan yaqinlashtiruvchi ixtisoslashgan tezkorlikni talab etuvchi estafeta mashqlarni o'zaro birlashtirib qo'llash uslubi Farg'ona shahar 3,4,6,10-sonli umumta'lim maktablarining o'quv-mashg'ulot jarayoniga tadbiiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazining 2022-yil 23-noyabrdagi 01/11-01/11-1766-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligi 18,4% ga oshirilgan;

o'smirlarning mentorlik (o'quvchilarni jismoniy salohiyatini maksimal darajada oshirish, ularga yo'l-yo'riq ko'rsatish va motivatsiya berish) qobiliyatlarini rivojlanish imkoniyatlarini oshirish uchun jismoniy tarbiya va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanlarini (M+3) korrelyatsion tahlil (turli omillar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash) qilish metodi Farg'ona shahar 3,4,6,10-sonli umumta'lim maktablarining yuqori sinf oquvchilarni darsdan tashqari o'quv-mashg'ulot jarayoniga tadbiiq etilgan va "Yengil atletika va uni o'qitish metodikasi" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 25-

avgustdagi 391-sonli buyrug'iga asosan 300237 raqamli guvohnoma) Natijada, integrativ ma'lumotlarni tez o'zlashtirish va umumiy tayyorgarlik orentatsiyasini ta'minlovchi integrativalangan mashg'ulotlar qo'llash orqali o'quvchilarining tezkor-kuch sifati 8,4% ga oshirishga erishilgan;

yuqori sinf o'quvchilarini armiya safida xizmat qilishga tayyorlashda jismoniy tarbiya va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanlari o'rtasida o'zaro integratsiya qiluvchi jismoniy tayyorgarlik uchun ishlab chiqilgan model (o'smirlarni armiyaga tayyorlashda) Andijon viloyati Marxamat tumanidagi 3-IDUMda hamda Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumanidagi 21-24-maktablar va Chust tumani 27-umumta'lim maktablarining o'quv-mashg'ulot jarayonlarida qo'llangan (O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazining 2022-yil 23-noyabrdagi 01/11-01/11-1766-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, mashqlarni innovatsion kombayn usulida to'lqinsimon qo'llash hisobiga chidamlilik jismoniy sifati 15,1% ga yaxshilangan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot materiallari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 8 ta ilmiy-uslubiy ishlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 4 ta maqola (3 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, 4 ta bob, 113 sahifa matn, 8 ta rasm, 11 ta jadval, xulosalar, amaliy tavsiyalar, adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti aniqlanganligi, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, natijalarning joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi hamda dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik darslarining nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida umumta'lim maktablari yuqori sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiya va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik darslarini zamonaviy texnologiyalarga mos tarzda olib borilishi hamda ularni takomillashtirish bo'yicha o'rganilayotgan muammolar yuzasidan ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili bayon qilingan. Mahalliy olimlarimizdan S.R.Uraimov, Sh.X.Xankeldiyev, A.T.Xasanov, D.N.Raxmatova, M.M.Azizov, G.H.Salixova, A.A.Mamatqulov, J.M.Ishtayev, R.A.Hamroqulov, Z.N.Usmonov va boshqalar tomonidan o'quvchi yoshlarni jismoniy tayorgarligini oshirish, jismoniy sifatlarni

takomillashtirish, yuqori sinf o'quvchilarini armiya safida xizmat qilishga tayyorlashda ularning jismoniy va psixologik tayyorgarligini oshirish bo'yicha ilmiy ishlar olib borilgan. Shuningdek, bir qator olimlar jismoniy tayyorgarlik va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanlarining o'zaro integratsiya qilinishi va uni shakllantirish muammolari, mashg'ulot yuklamalarini optimallashtirish bo'yicha maqsadga yo'naltirilgan pedagogik tadqiqotlar va izlanishlar amalga oshirishgan.

Fanlararo integratsiya o'quvchilardagi mavjud bilimlar va malakalarni chuqurlashtirilishni, ularni bitta ilmiy soha doirasida yangi ma'lumotlar bilan to'ldirishni, tadqiqot muammolari bo'yicha bir nechta maxsus kurslarni birlashtirishni nazarda tutadi. Bu esa bilimlarni birmuncha yuqori darajada nazariy jihatdan umumlashtirishga, o'quvchilarning nazariy bilimlarini o'sishiga, ularda o'zini o'zi takomillashtirishga bo'lgan ehtiyojni shakllantirishga yordam beradi.

Ilmiy-uslubiy adabiyotlar va amaliy tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, fanlararo integratsiya o'quvchilar tomonidan fanlarini o'zlashtirish jarayonida egallangan bilim va malakalarni umumlashtirilishni emas, balki ularni o'zaro bir-biriga kirishib ketishini, o'zaro bir-birini to'ldirishini, yangi sharoitlarga moslashishni nazarda tutadi.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan V.V.Demochkin, N.Y.Kachanov, L.P.Matveyev, A.V.Naydin, A.V.Pachev va boshqalar tomonidan o'quvchi yoshlar va sportchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish muammolari o'rganilgan. Zamonaviy pedagogikada integratsiyaning "Fanlararo aloqalar", "Fanlararo integratsiya" kabi tushunchalarni va ular anglatadigan pedagogik hodisalarning hayotiyiligini qo'llashga oid muammolar ilmiy asoslangan, lekin ushbu muammolarni hal qilishga oid yagona yondashuv ishlab chiqish bo'yicha masalalar yetarlicha yoritilmagan.

Mazkur muammolarni hal qilishda mamlakatimiz va xorij olimlari tomonidan e'tibor qaratilgan, integrativ yondashuv asosida ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni tadbiiq qilishning har-hil usullari ko'rib chiqilmoqda. Umumta'lim maktablarida integratsiyalangan dasturlar yaratilib, integratsiyalangan darslarni tuzish muammosi muhokama qilib borilmoqda. Mazkur masalalarni tadqiq etishni kengaytirish, nazariy asoslarini, integratsiya g'oyalarini pedagogik amaliyotga joriy qilish bo'yicha didaktik va uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi. Yuqorida bayon qilinganlar muhim pedagogik muammoni hal qilish mavjudligi to'g'risida asosli fikrni tuzish va "Jismoniy tarbiya" fanini umumta'lim maktablarining chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani bo'yicha o'quv rejasi o'rtasidagi mavjud tafovutlar to'g'risida o'z tasavvurini shakllantirish imkonini beradi.

Dissertatsiyaning "**Tadqiqot usullari va tashkil etilishi**" deb nomlangan ikkinchi bobida ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, so'rovnoma, pedagogik kuzatuv, pedagogik testlash, pedagogik tajriba va matematik statistika uslublari hamda tadqiqotning tashkil etilishi yuzasidan ma'lumotlar berilgan.

Ilmiy tadqiqot uch bosqichda olib borildi. Birinchi bosqichda 2019-2020-yillar davomida o'smir yoshlarning jismoniy tayyorgarligini oshirish yuzasidan olib borilgan maxsus ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlil qilindi. Shuningdek, yuqori

sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiya va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik darslari bo'yicha ishlab chiqilgan o'quv rejalari, dasturlar tahlil qilindi va olingan xulosalar umumlashtirildi. Tadqiqotning birinchi bosqichida olib borilgan tadqiqotlar va tahlillar natijasida dissertatsiya ishimizning maqsadi va vazifalari belgilab olindi.

Tadqiqotning ikkinchi bosqichi davomida (2020-2021-yillar) Farg'ona viloyati umumta'lim maktablarining 10-11 sinflarida tahsil oluvchi o'smirlar orasidan jami 74 nafar o'quvchi nazorat va tajriba guruhlariga ajratildi. Tadqiqot ishlariga jalb qilingan yuqori sinf o'quvchilari uchun jismoniy tarbiya va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik darslarini integratsiya qilish maqsadida o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish uchun kompleks testlar va 10-11 sinf o'quvchilarini armiya safida xizmat qilishga tayyorlashda jismoniy tarbiya va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik darslarini integratsiya qilishga yo'naltirilgan hamda tabaqalashtirilgan dastur ishlab chiqildi.

Tadqiqotning uchinchi bosqichi (2021-2022-yillar) umumlashtiruvchi bosqich bo'lib, tadqiqot natijalarini umumlashtirishga, nazariy xulosalarni shakllantirishga, amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilishga va dissertatsiya ishini rasmiylashtirishga bag'ishlandi.

Mazkur bosqichda pedagogik tajribalar o'tkazildi hamda biz tomonimizdan ishlab chiqilgan maxsus testlar umumta'lim maktablari yuqori sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiya va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik darslari jarayoniga tatbiq etilib, olingan natijalar statistik tahlil qilindi, ishlab chiqilgan dasturni amaliyotga joriy etishimiz natijasida o'smir o'quvchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasi yaxshilandi, xulosalar va amaliy tavsiyalar shakllantirildi.


Dissertatsiyaning **“Chaqiruvga qadar o'quvchi yoshlarning jismoniy tayyorgarligini tabaqalashtirilgan holda baholash uslubi”** deb nomlangan uchinchi bobida umumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma tahlillari, Farg'ona shahridagi umumta'lim maktablarida tahsil oluvchi 10-11 sinf o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligini aniqlash uchun majmual testlar, Farg'ona viloyati Mudofaa ishlari boshqarmasining tibbiy komissiyasi tomonidan chaqiruvgacha yoshdagi o'smirlar orasida o'tkazilgan tibbiy ko'rik natijalari tahlili, yuqori sinf o'quvchilarini harbiy xizmatga tayyorlashda integratsiyalashgan pedagogik modeli va uning ishlash mexanizmi yoritib berilgan.

O'smir yoshlarning jismoniy tayyorgarligi darajasini aniqlash maqsadida so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnomada Farg'ona viloyati umumta'lim maktablarining jismoniy tarbiya va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik bo'yicha jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari va yuqori sinf o'quvchilari ishtirok etdi. So'rovnomada ish staji 5 yildan 20 yilgacha bo'lgan 16 nafar o'qituvchi ishtirok etdi. Respondentlarning 10,8% o'smirlarni armiya safida xizmat qilishga tayyorlash uchun jismoniy tarbiya darslariga ajratilgan soatlar yetarli deb hisoblashdi. (1-rasmga qarang).

Respondentlarning 96,6% umumta'lim maktablarining yuqori sinflarida jismoniy tarbiya dars soatlarini ko'paytirish maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.

Yuqori sinf o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligini oshirish uchun tavsiya etilgan testlar majmuasi Farg'ona shahridagi 3-sonli, 6-sonli va 9-sonli umumta'lim

maktablarida tahsil oluvchi 10-11-sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiya dars mashg'ulotlariga tatbiq qilindi.



#### 1-rasm. Umumta'lim maktablarida yuqori sinf o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari

Testlarni tanlash paytida, 10-11-sinflar uchun jismoniy tarbiya bo'yicha o'quv dasturi va armiya safida xizmat qilishning birinchi choragida harbiy xizmatchilar uchun mo'ljallangan CHQBTNM-2021da belgilangan jismoniy tayyorgarlik bo'yicha test mashqlaridan foydalanildi (1-jadvalga qarang).

Biz tomonimizdan yuqori sinf o'quvchilarining jismoniy sifatlarini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan, pedagogik testlash natijalari shuni ko'rsatdiki, 10-sinf o'quvchilari 100 m. masofaga yugurish testida  $14,42 \pm 2,06$  natijani qayd etgan bo'lsa, tadqiqot yakuniga kelib bu ko'rsatkich  $13,9 \pm 1,49$  ni tashkil etdi. Natijada bu guruhda tezkorlik sifati ko'rsatkichi 3,7% yaxshilandi, 11-sinf o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan 100 m. masofaga yugurish testi natijalari  $14,23 \pm 1,48$  ni tashkil etdi, tadqiqot yakunida esa bu ko'rsatkich  $13,6 \pm 1,05$  ni tashkil etdi. Natijada tezkorlik sifati ko'rsatkichi 4,6% yaxshilangandi.

Yuqori sinf o'quvchilarining chidamlilik jismoniy sifatini aniqlash maqsadida o'tkazilgan 3000 metr masofaga yugurish testi natijalari bo'yicha olib borilgan dastlabki tajriba sinovida 10-sinf o'quvchilarining o'rtacha natijasi  $14,53 \pm 2,94$  ni tashkil qildi, tadqiqot yakunida esa bu ko'rsatkich  $13,32 \pm 1,62$  ni tashkil qildi. Natijada ishonchlilik darajasi 9,0% yaxshilandi. Shuningdek, 3000 metr. masofaga yugurish testi bo'yicha 11-sinf o'quvchilarining natijalari  $14,80 \pm 2,34$  ni tashkil etdi. Tadqiqot yakunida bu ko'rsatkich  $12,50 \pm 1,88$  ni tashkil qildi, yani 8,6% ishonchlilik darajasi o'sdi. Egiluvchanlik sifatini oshirish maqsadida o'tkazilgan chalqancha yotgan holda 30 soniya davomida gavdani  $90^{\circ}$  ga ko'tarib-tushirish testida 10-sinf o'quvchilarining dastlabki ko'rsatkichi  $38 \pm 5,53$  ni tashkil qilgan bo'lsa, tadqiqot yakunida bu ko'rsatkich  $43,9 \pm 5,91$  ni tashkil etdi. Natijada mazkur guruhda egiluvchanlik korsatkichi 15,5% yaxshilandi. Mazkur test bo'yicha 11-sinf o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan dastlabki test natijalari bo'yicha ko'rsatkich  $35,5 \pm 4,49$  ni

tashkil etdi. Tadqiqot yakunida bu ko'rsatkich 41,8±4,3 ni tashkil etdi. Natijada bu guruhda tezkorlik sifati ko'rsatkich 17,7% yaxshilangandi.

**1-jadval**

**Farg'ona shahar umumta'lim maktablari 10-11-sinf o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligi holati (n=74)**

Testlar	2019-2020 y.y.		2020-2021y.y.		%	
	$\bar{X} \pm \sigma$		$\bar{X} \pm \sigma$		%	
Sinflar	10-sinf	11- sinf	10- sinf	11-sinf	10-sinf	11-sinf
100 m yugurish (sek)	14,42±2,06	14,23 ±1,48	13,9±1,49	13,6±1,0 5	3,7	4,6
3000 m yugurish (min)	15,53±2,94	14,80 ±2,34	13,32 ±1,62	12,50 ±1,88	9,0	8,6
Turnikda tortilish, (marta)	10,1±1,66	11,2 ±2,1	12,2 ±1,94	13,3 ±2,09	20,7	18,7
Granata uloqtirish 700 gr (met)	28,9±4,65	33,7±4,75	32,37± 3,89	36,1±3,6	12,0	7,1
Joyidan turib uzunlikka sakrash (sm)	201,9±30,29	216,9 ±28,8	221 ±22,66	230,9±22 ,92	9,4	6,45
Polda tayanib qo'llarni bukib- yozish (marta)	29,7± 5,57	30,2± 5,58	35,40±5,8	37,1±6,3 5	19,19	22,8
Chalqancha yotgan holda 30 soniya davomida gavdani 90 ga ko'tarib- tushirish (marta)	38±5,53	35,5±4,49	43,9±5,91	41,8±4,3	15,5	17,7
To'siqlar osha yugurish, 100 m (sek)	17,8±18,44	16,5±19,1 6	15,8±17,32	15,5±18, 26	8,2	7,5

Harbiy-amaliy tayyorgarlik harbiylashtirilgan to'siqlardan oshib o'tish va qo'l jangi majmuasini bajarish orqali o'rganildi. To'siqlar yo'lkasini oshib o'tish faqatgina CHQBTNM-2021 talablari bo'yicha baholandi. Bunda yuqori sinf o'quvchilarining 54% me'yor talablarini bajara olishmagan.

Chaqiruvga qadar yoshlarni armiya safida xizmat qilishga yaroqliligini tahlil qilish uchun harbiy xizmatga chaqiruv komissiyalari hisobot xujjatlari va Farg'ona viloyatida oxirgi uch yil mobaynida o'tkazilgan tibbiy ko'rik natijalari o'rganildi. Ushbu chaqiriq komissiyalarini statistik hisobotlari bo'yicha chaqiriqqacha yoshdagilarning 36% umumta'lim maktablarini tugatgach armiya safida xizmat qilishga chaqiriladi va aynan shu yoshlar xizmat qilish jarayonida qiyinchiliklarga duch kelishi monitoring asosida aniqlandi.

Salomatligi holati bo'yicha armiya safida xizmat qilishga yaroqsiz bo'lganlar soni butun tadqiqot davomida stabil tarzda bir xil bo'lganligi aniqlangan va bu ko'rsatkich 0,4-0,5% ni tashkil qilgan. Salomatlik holati bo'yicha armiya safida xizmat qilishdan vaqtinchalik ozod qilinganlar sonining 2019 yilda 27% dan 2021 yilda 13,9% gacha kamayishi kuzatilgan.

Pedagogik tadqiqot jarayonida dastlabki ko'rsatkichlar quyidagicha bo'lgan: 10-sinf o'quvchilarining tana uzunligi o'rtacha  $165,2 \pm 24,31$  sm. ni tashkil qildi, bunda, variatsiya koeffitsiyenti - 14,72% ga mos bo'lgan, bu o'rganilayotgan kontingentning ma'lum darajadagi ishonchli zichligini ko'rsatadi. (2-rasmga qarang).

Ko'rikdan o'tkazish tavsiflari			
	2019	2020	2021
Chaqiriqqacha yoshdagilarning umumiy soni	15679	16869	16803
Xizmat qilishga yaroqlilari	9952	12757	11713
Tinchlik davrida salomatligi tufayli yaroqsiz bo'lganlar soni	1131	1066	1773
Salomatligi tufayli mustasno tariqasida yaroqsiz bo'lganlar soni	32	45	76
Salomatlik holati bo'yicha xizmat o'tashni qoldirilishi	4564	3001	2341
Boshqa sabablarga ko'ra xizmat o'tashning qoldirilishi	2701	2651	2512

**2-rasm. Farg'ona viloyati Mudofaa ishlari bo'limi tibbiy komissiyasining chaqiriqqacha yoshdagilarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish natijalari (2019 – 2021 y.y.)**

11-sinf o'quvchilari bilan o'tkazilgan xuddi shunday tadqiqotlar, ularning bo'y ko'rsatkichlari tavsiflari o'rtacha ortish an'anasiga ega ekanligini ko'rsatdi, tana uzunligining o'rtacha ko'rsatkichi  $168,5 \pm 24,7$  sm.ni tashkil qildi,  $V=14,62\%$  ( $t=1,23$ ). Umumta'lim maktab tizimidagi ta'limning yillik siklida yuqori sinf o'quvchilarining bo'y ko'rsatkichlarini qiyosiy dinamikasi tadqiq qilinayotgan ko'rsatkichning o'rtacha 2,31%ga ishonchsiz ortganini ko'rsatgan.

Yuqori sinf o'quvchilari tana massasi ko'rsatkichlarini baholash ushbu ko'rsatkichni o'quv yillari bo'yicha sekin-asta ishonchli ortishini aniqlash imkonini berdi ( $t=6,5$ ). 10-sinf o'quvchilarining tana massasi o'rtacha  $58,40 \pm 6.76$  kg.ni tashkil qilgan, vazn ko'rsatkichlarining o'zgarish diapazoni 54 dan to 58 kg.gacha,  $V=11,98\%$ , bu variativ ko'rsatkichlarning bir xilligini ko'rsatadi. O'quvchilarida tana massasi yoshga oid ta'sir kuchi ostida o'rtacha  $62,5 \pm 6.90$  kg.gacha ( $V= 6,55\%$ ) ishonchli o'sdi (2-3-jadvallarga qarang).

Umumta'lim maktablarida tahsil olayotgan chaqiriqqacha yoshdagi o'quvchilarning respirator ko'rsatkichlarini baholashda 10-sinf o'quvchilariga nisbatan tinch holatda ko'krak qafasi aylanasi ko'rsatkichi o'rtacha  $79,1 \pm 9.12$  sm.ni ( $V=11,79$ ), o'pkaning tiriklik sig'imi ko'rsatkichi esa o'rtacha  $3450 \pm 414$  ml ( $V=12,5$ )ni tashkil qildi. 11-sinf o'quvchilarida ko'krak qafasi aylanasi ko'rsatkichi 4,4 sm.ga ishonchli o'sganligi kuzatilgan, farq 5,27%, o'rtacha qiymati  $83,5 \pm 7.66$  sm ( $V=12,6\%$ ), O'TS ko'rsatkichi o'rtacha  $3540 \pm 431$ ml ( $V= 8,7\%$ ), ( $t= 3,57$ ).

Qo'l panja dinamometriyasi bo'yicha ko'rsatkichlar, 10-sinf o'quvchilarida o'ng qo'li panja kuchi o'rtacha – 31,1±4.70 kg.ni (V= 16,89%), 11-sinf o'quvchilarida esa 33,2±3.36 kg.ni (V= 12,92%),(t= 3,72) tashkil qildi.

**2-jadval**

**10-sinf o'quvchilarining jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari (n=74)**

T/p	Ko'rsatkichlar	Tadqiqotdan oldin			Tadqiqotdan keyin			T	P
		$\bar{X}$	$\sigma$	V%	$\bar{X}$	$\sigma$	V%		
1	Tana uzunligi (sm)	165,2	4,31	4,72	168,15	8,59	9,72	1,23	>0,05
2.	Tana vazni (kg)	58,4	6,76	11,98	60,5	6,90	11,10	2,46	<0,05
3.	KQA (sm)	79,1	9,32	11,79	81,49	9,79	8,54	1,83	>0,05
4.	Ko'krak qafasi ekskursiyasi	81, 5	6,44	15,98	84,16	10,1	7,4	3,19	>0,01
5.	Ko'krak qafasi (sm), (eks, keyin)	73,8	9,06	14,70	76,85	9,57	9,54	3,47	<0,001
6	O'TS (ml)	3450	414	12,5	3540	431	8,7	3,57	<0,001
7	O'ng qo'l dinamometriyasi (kg)	31,1	4,70	16,89	32,9	4,9	11,2	3,97	<0,001
8	Chap qo'l dinamometriyasi (kg)	27,1	3,41	13,97	30,14	3,6	9,57	4,33	<0,001
9	Bel kuchi (kg)	73,58	11,1	15,37	78,2	9,12	10,73	3,21	<0,01

Chaqiriqqacha yoshdagi o'quvchilarning kuch tayyorgarligini sezilarli omili gavda kuchi ko'rsatkichi hisoblanadi, bu ko'rsatkich 10-sinf o'quvchilarida o'rtacha 73,58±11,1kg.ni (V=15,37%) tashkil qildi, bu holat sinaluvchilarning kuch tayyorgarligi darajasi qoniqarli ekanligini bildiradi. Bunda 11-sinf o'quvchilarining o'rtacha ko'rsatkichi 80,85±10,74 kg.ni (V=14,25%) tashkil qildi, natija 10-sinf o'quvchilarining ko'rsatkichlaridan 1,52 kg (2,03%) ko'p bo'ldi. Dastlabki pedagogik tajriba davomida umumta'lim maktablari yuqori sinf o'quvchilarining antropometrik ko'rsatkichlari bo'yicha olingan natijalarining o'sishi ishonchsiz ekanligi aniqlandi. Bunday holat maktabdagi an'anaviy jismoniy tarbiya va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik darslari me'yorlarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.

O'quvchilarning jismoniy sifatlarini baholash uchun umumta'lim maktablari tizimida nazarda tutilgan jismoniy tarbiya va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik bo'yicha me'yoriy xujjatlarga asoslangan testlar saralab olindi va mashg'ulot jarayoniga joriy qilindi.

Ularning tarkibiga quyidagi testlar kirgan: 100 m yugurish, 300 m yugurish, turnikda tortilish, granata uloqtirish, joyidan turib uzunlikka sakrash, polda qo'llarni bukib-yozish, chalqancha yotgan holda 30 soniya davomida gavdani 90° ga ko'tarib tushirish, 100 m masofaga to'siqlar osha yugurish, o'mbaloq oshib ko'tarilish, 3x10 metr masofaga mokisimon yugurish, yugurib kelib uzunlikka sakrash. Yuqori sinf o'quvchilarining tezkorlik imkoniyatlari natijalarini



baholashda quyidagilar aniqlandi: 100 metrga yugurish testida 10-sinf o'quvchilarining o'rtacha ko'rsatkichlari  $14,42 \pm 2,07$  ni ( $V=6,31\%$ ), 11-sinf o'quvchilarining o'rtacha ko'rsatkichlari esa  $14,23 \pm 1,48$  soniyani tashkil qildi, bu ko'rsatkich 10-sinfdagi tengdoshlarinikidan  $0,19$  soniyaga yaxshi bo'lib,  $1,32\%$ ni tashkil qildi, bunda variativ tarqoqlik  $V=5,27\%$ ni tashkil etdi. Chaqiruvga qadar yoshdagilarni 3000 metr masofaga yugurish testi natijalari quyidagicha: 10-sinf o'quvchilarining o'rtacha ko'rsatkichlari  $14,65 \pm 3,91$  daqiqani ( $V=4,48\%$ ), 11-sinf o'quvchilarida esa  $13,80 \pm 2,34$  daqiqani tashkil qilgan, variatsiya ko'rsatkichi ishonchli tarzda –  $V=4,48\%$  bo'lgan.

### 3-jadval

#### 11-sinf o'quvchilarining jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari, 2020-2021 o'quv yili (n=74)

T/p	Ko'rsatkichlar	Tadqiqotdan oldin			Tadqiqotdan keyin			T	P
		$\bar{X}$	$\Sigma$	V%	$\bar{X}$	$\sigma$	V%		
1.	Tana uzunligi (sm)	168,5	24,73	14,62	$172,37$	17,72	9,17	1,21	>0,05
2.	Tana vazni (kg)	60,5	6,90	11,10	65,05	8,3	8,7	2,46	<0,05
3.	KQA (sm)	83,5	7,66	12,6	85,32	7,96	10,36	1,73	>0,05
4.	Ko'krak qafasi ekskursiyasi	84,16	6,00	15,67	86,15	6,50	9,67	2,36	<0,05
5.	Ko'krak qafasi (sm), (eks, keyin)	76,07	7,5	14,51	77,27	7,65	10,4	1,94	>0,05
6.	O'TS (ml)	3566	421	13,1	3670	425	8,27	3,6	<0,001
7.	O'ng qo'l dinamometriyasi (kg)	33,2	3,36	12,92	5,82	3,72	9,71	3,16	<0,001
8.	Chap qo'l dinamometriyasi (kg)	30,27	3,35	13,34	31,92	3,55	8,3	3,55	<0,001
9.	Bel kuchi (kg)	75,07	10,74	14,25	80,85	7,93	9,64	3,32	<0,001

Shuni aytish joizki, 11-sinf o'quvchilarining chidamlilik ko'rsatkichi o'rtacha natijasi 10-sinf o'quvchilarining o'rtacha ko'rsatkichlaridan  $0,73$  soniyaga, ya'ni ( $4,3\%$ ) ortiq bo'ldi, bunda sinflar o'rtasidagi qiyosiy farq ishonchliligi tasdiqlandi ( $t=2,96$ ),  $3 \times 10$  metrga mokisimon yugurish testida 10-sinf o'quvchilarining o'rtacha natijalari  $7,9 \pm 1,02$  soniyani, 11-sinf o'quvchilariniki esa  $7,8 \pm 1,01$  soniyani tashkil qildi, tadqiq qilinayotgan ko'rsatkich bitiruvchi o'quvchilarda  $1,6$  soniyaga ishonchli yaxshilangan, bundagi farq  $5,48\%$ ni tashkil qilgan, progressiv ishonchlilik  $t=4,31$  ni tashkil qildi. (4-jadvalga qarang).

Yugurib kelib uzunlikka sakrash testi bo'yicha 10-sinf o'quvchilari natijasi o'rtacha  $381,4 \pm 25,9$  sm.ni, 11-sinf o'quvchilari natijalari esa  $395,1 \pm 29,4$  sm.ni, o'rtadagi farq –  $25$  sm.ni ( $6,69\%$ ,  $t=1,93$ ) tashkil qilganligini ko'rsatdi. Joyidan turib uzunlikka sakrash testida 10-sinf o'quvchilari natijasi o'rtacha  $203,9 \pm 20,3$

sm.ni, 11-sinf o'quvchilari ko'rsatkichi ishonchsiz 9 sm.ga (3,91%) yuqori bo'lib  $214,9 \pm 22,8$  sm.ni ( $t=4,55$ ) tashkil qildi.

O'rganilayotgan kontingentning kuch imkoniyatlari turnikda tortilish testi bo'yicha 10-sinf o'quvchilarining natijasi o'rtacha  $8,64 \pm 2,12$  martani ( $V=2,86\%$ ), 11-sinf o'quvchilari natijasi esa  $10,35 \pm 2,63$  martani ( $V=2,39\%$ ), o'rtadagi farq  $1,71$  martani, ya'ni (12.63%) ni tashkil qildi, ishonchliik darajasi yuqori  $t = 4,84$  ga teng.

Polda qo'llarni bukish va yozish testi bo'yicha 10-sinf o'quvchilarining natijasi o'rtacha  $10,6 \pm 1,66$  martani ( $V=11,65\%$ ), 11-sinf o'quvchilari natijasi  $11,2 \pm 1,9$  martani, o'rtadagi farq  $0,6$  martani (1,06%) ni tashkil qildi, ishonchlik darajasi yuqori -  $t = 1,50$  ga teng.

#### 4-jadval

#### Farg'ona shahar umumta'lim maktablari (10-11 sinflarni)

#### bitiruvchilarining jismoniy va maxsus jismoniy tayyorgarliklari holati ( 2019-2020, 2020-2021 y.y.) (n= 74 )

Nazorat testlar	Tajribadan oldin		Tajribadan keyin		t	
	10-sinf	11-sinf	10-sinf	11-sinf	10	11
100 m. yugurish (sek)	$14,42 \pm 2,06$	$14,23 \pm 1,48$	$13,9 \pm 1,49$	$13,6 \pm 1,05$	3,7	4,6
3000 m. yugurish (min)	$15,53 \pm 2,94$	$14,80 \pm 2,34$	$13,32 \pm 1,62$	$12,50 \pm 1,88$	9,0	8,6
Turnikda tortilish, (marta)	$10,1 \pm 1,66$	$11,2 \pm 2,1$	$12,2 \pm 1,94$	$13,3 \pm 2,09$	0,7	8,7
Granata uloqtirish 700 gr. (m.)	$28,9 \pm 4,65$	$33,7 \pm 4,75$	$32,37 \pm 3,89$	$36,1 \pm 3,6$	12	7,1
Joyidan turib uzunlikka sakrash (sm.)	$201,9 \pm 30,29$	$216,9 \pm 28,8$	$221 \pm 22,66$	$230,9 \pm 22,92$	9,4	6,45
Polda qo'llarni bukib rostdash (marta)	$29,7 \pm 5,57$	$30,2 \pm 5,58$	$35,40 \pm 5,8$	$37,1 \pm 6,35$	9,19	2,8
Chalqancha yotgan holda, 30 soniya davomida gavnani $90^\circ$ ga ko'tarib tushirish (marta)	$38 \pm 5,53$	$35,5 \pm 4,49$	$43,9 \pm 5,91$	$41,8 \pm 4,3$	5,5	7,7
To'siqlar osha yugurish 100 (s.)	$170,8 \pm 18,44$	$169,5 \pm 19,16$	$157,8 \pm 17,32$	$155,5 \pm 18,26$	8,2	7,5
Yuib kelib uzunlikka sakrash, sm	$381,4 \pm 25,9$	$403,7 \pm 55,9$	2,95	$395,1 \pm 29,4$	$393 \pm 4,977$	2,87

Granata uloqtirish mashqlari, barcha umumta'lim maktablarining me'yoriy hujjatlariga asosiy kasbiy zarur bo'lgan test sifatida kiritilgan bo'lib, Farg'ona shahridagi umumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilarida tezkor-kuch xarakteridagi sifatlar ushbu testni bajarish orqali o'rganilganda, 10-sinf o'quvchilarining natijasi o'rtacha  $28,7 \pm 2,65$  m.ni ( $V=14,98\%$ ), 11-sinf

o'quvchilarining natijasi esa  $33,4 \pm 2,75$  m.ni, o'rtadagi farq 4,7 m.ni (1,14%) ni tashkil etdi, ishonchlilik darajasi yuqori -  $t = 4,16$  ga teng.

Farg'ona shahridagi umumta'lim maktablari yuqori sinf o'quvchilarining harakat tayyorgarligini aniqlash uchun pedagogik testlash jarayoni tashkil qilindi. Mazkur jarayonga umumta'lim maktablari jismoniy tarbiya darsi va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik darslari bo'yicha davlat ta'lim standartlarida belgilangan testlar tatbiq qilindi. O'quvchilarning umumiy va maxsus tayyorgarligini belgilovchi testlar tarkibiga 100 m yugurish, 3000 m yugurish, 3x10 metrga mokisimon yugurish yugurib kelib uzunlikka sakrash, joyidan turib uzunlikka sakrash, polda qo'llarni bukish va yozish, turnikda tortilish, granata uloqtirish testlari kiritilgan (5-jadvalga qarang).

### 5-jadval

#### Farg'ona shahridagi umumta'lim maktablari yuqori sinf o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligi ko'rsatkichlari qiyosiy dinamikasi

Sinflar	10-sinf	11-sinf	Farqi, %
Yugurib kelib uzunlikka sakrash (metr)	381	395	0,26%
100 m masofaga yugurish (s)	14,4	14,2	1,4%
Joyidan turib uzunlikka sakrash (metr)	203	214	7,4%
Turnikda tortilish (marta)	10,6	11,2	9,8%
3000 m masofaga yugurish	14,65	13,80	3,95%
Granata uloqtirish, 700gr (metr)	28,7	33,4	16,26%
Polda qo'llarni bukish va yozish (marta)	29,7	31,7	5,6%
3x10 m masofaga mokisimon yugurish	7,9	7,8	1,3%

Shunday qilib, 10-11 sinf o'quvchilarining tezkorlik imkoniyatlarini qiyosiy tahlil qilish amalga oshirilgan, unda progressiv siljishlar diapazoni 2,71% dan to 3,01% gacha variatsiya qildi, shunga o'xshash 1,08% dan to 3,91% gacha qoniqarli darajada bo'ldi.

Umumta'lim maktablari yuqori sinf o'quvchilari jismoniy tayyorgarligi bo'yicha o'tkazilgan tajribalar jismoniy tarbiya va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanlari bo'yicha o'quv rejalariga tuzatishlar kiritish orqali yuqori sinf o'quvchilarini armiya safida xizmat qilishga tayyorlashda o'z samarasini berishi muqarrardir.

Ushbu dastur Farg'ona shahridagi 3-6-9-10-umumta'lim maktablarida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlarida qo'shimcha mashg'ulotlarda qo'llanildi va yuqori sinf o'quvchilarni harbiy xizmatga tayyorlash bosqichida jismoniy rivojlanish darajasining sezilarli o'sishiga olib keldi.

Integratsiya nazariy va amaliy mashg'ulotlarda amalga oshirildi. Nazariy mashg'ulotlar didaktik material va chaqiriqqacha harbiy ta'limning texnik vositalarini qo'llash bilan hikoya va suhbat shaklida o'tkazildi, ularning tarkibiga ChQBTNM-2021 va jismoniy tarbiya kursidan nazariy mashg'ulotlarda va amaliy harakatlar kiritildi. Amaliy mashg'ulotlar qurollarni va harbiy-texnik jihozlarni, individual himoya vositalarini, chaqiriqqacha harbiy ta'limning uskunalari va boshqa jihozlarni qo'llash bilan o'rganilayotgan materialni mustahkamlashga yo'naltirildi; ChQBTNM-2021 va jismoniy tarbiya kursidan o'rganilayotgan mavzuning yetakchi holatlarini rivojlantirishga to'laqonli ko'maklashadigan vositalar qo'llanildi.

**Yuqori sinf o'quvchilarini armiya safida xizmat qilishga tayyorlashda jismoniy tarbiya va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligini "KK+JT" tabaqalashtirish dasturi**

